# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi

Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi

Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant

Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi

Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi

Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ... 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойбергамович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**



# MOLIYAVIY BARQARORLIGI TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL MOHIYATI, TURLARI VA ASOSIY TAVSIFLARI

**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich**
Mustaqil izlanuvchi,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akdemiyasi

Annotatsiya: Maqolada turli xil yondashuvlar tasvirlangan moliyaviy barqarorlikning ta'rifi, kontsepsiyaning mohiyati ochib berilgan, shuningdek tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, SVP tahlili, ishlab chiqarish leveraji, marjinal xavfsizlik chegarasi, moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar

Abstract: The article reveals various approaches to the definition of financial stability, reveals the essence of the concept. The main factors influencing the financial stability of the organization are also considered and described.

Key words: financial stability, CVP-analysis, production leverage, safety margin, factors influencing financial stability.

Аннотация: В статье раскрыты различные подходы к определению финансовой устойчивости, раскрыта сущность понятия. Также рассмотрены и описаны основные факторы, оказывающие влияние на финансовую устойчивость организации.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, CVP-анализ, производственный левеверидж, маржинальный запас прочности, факторы, влияющие на финансовую устойчивость.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning va uni oshirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat korxona moliyasini sog'lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta'minlash.

O'zbekistonda so'nggi yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, aloqa sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish va loyihalar mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylandi.

Aloqa korxonalari taraqqiyoti va ular moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish o'zaro bog'liq muammolardandir. Mamlakatimizda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham yangi zamonaviy talablar asosida rivojlanish uchun muhim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari aloqa korxonalari taraqqiyotini rag'batlantirishning muhim dastaklariga egadir. Bu narsa shu bilan bog'liqki, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tarkibida mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo'llanilishi maqsadida aloqa korxonalari kelgusi innovatsion taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik mazmunini tushunishning turlicha yondoshuvlari va variantlari uchraydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

I. A. Pavlova korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati "Uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi" [1] G. V. Saviskaya moliyaviy barqarorlik – bu xo'jalik yurituvchi subektning o'zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, o'z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to'lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanadi [2].

I. N. Omelchenko, Y. V. Borisovalar "moliyaviy barqarorlik doimiy tarzda bozor konyunkturasi o'zgarib borishi sharoitida korxonaning o'z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir" [3].

A. D. Sheremet moliyaviy barqarorlik qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi [4].

L. T. Gilyarovskaya, A. A. Vexorevalar Korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to'lovga layoqatlilik ta'minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o'sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi" [5].

A. Ivasenko moliyaviy barqarorlik – bu korxona faoliyatining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, u o'z mablag'lari hisobidan rivojlanish qobiliyati bilan tavsiflanadi, shu bilan birga to'lov qobiliyati va kreditga layoqatliligini maqbul xavf darajasida saqlab qoladi [6].

E. A. Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi [7].

T. S. Malikovxo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi [8].

M. Q. Pardayev va B. I. Isroilov moliyaviy baqarorlikni korxona o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati [9], A. B. Eshquvatov moliyaviy barqarorlik bu – korxonalarning umumiy barqarorligining tarkibiy qismi, pul mablag'lari balansi, faoliyatini amalga oshirishdagi barcha resurslarning mavjudligi, shu jumladan, o'z va qarz mablag'larini samarali nazorat qilishi, faoliyatini uzliksizliligini ta'minlashdir

Xullas, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish orqali quyidagi xulosa qilish mumkin: mualliflar o'rtasida "Moliyaviy barqarorlik" mazmuniga oid yaxlit ta'rif berilgani yo'q; korxona moliyaviy barqarorligi nafaqat alohida olingan korxonalar, balki shu bilan bir vaqtda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi; barqarorlikni baholash nafaqat moliyaviy, balki umumiqtisodiy ahamiyatdagi muammolarni hal etish uchun ham birdek ahamiyatlidir.

Moliyaviy barqarorlik – korxona ixtiyorida bo'sh pul mablag'lari va moliyaviy oqimlarning balansliligining mavjudligi asosida korxonaning faoliyat yuritishi va uzluksiz ishlashini ta'minlash qobiliyatidir. Korxona uzluksiz ishlari tarkibiga nafaqat uning mahsulot ishlab chiqarishi, ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishini, balki shu bilan birga olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning ijrosini ham kiritish lozim. Moliyaviy barqarorlik uzoq vaqt davomida korxonaning to'lovga layoqatliligini xususiyatlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarining tahlili asosida korxona moliyaviy barqarorligining to'rt xil turdagi asosiy ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1-jadval: Korxona moliyaviy barqarorligi asosiy ko'rinishlari tavsifi

| № | Korxona moliyaviy barqarorligining asosiy ko'rinishlari | Moliyaviy barqarorlik turi tavsifi | Zahiralarni moliyalashtirish manbalari |
|---|---|---|---|
| 1. | Mutlaq moliyaviy barqarorlik | Korxona mutloq tarzda tashqi kreditorlardan xolis va to'lov qobiliyatining yuqori darajasiga ega | Barcha ishlab chiqarish zaxiralari o'z aylanma mablag'lari hisobidan qoplanadi |
| 2. | Normal moliyaviy barqarorlik | Korxona to'lov qobiliyati o'z va jalb etilgan mablag'lar hisobidan ta'minlanadi | Tovar operatsiyalari bo'yicha kreditorlik qarzlari, o'z aylanma mablag'larining, ishlab chiqarish zaxiralarini qoplash uchun olingan bank ssudalarining summasi |
| 3. | Nobarqaror moliyaviy barqarorlik | Qoplashning qo'shimcha manbalari | Moliyaviy qiyinchilikni yumshatuvchi yoki ma'lum ma'noda normal asoslarga ega bo'lmagan vaziyatda o'z aylanma mablag'lari hamda uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar |
| 4. | Inqirozli moliyaviy holat | Korxonaning bankrotlik yoqasida turganligi | Pul mablag'lari, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlari hatto kreditorlik qarzlari va muddati o'tib ketgan ssudalarni qoplash uchun ham yetmasligi |

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili “Moliyaviy barqarorlik” tushunchasi mohiyatini tushunishga uch xil yondoshuv mavjudligini koʻrsatdi.

Birinchi yondashuv mazkur tushunchani tor maʼnoda tushunishni izohlaydi va xoʻjalik subyekti moliyaviy holatining koʻrsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi yondashuv vakillari esa, oʻz navbatida, ushbu tushuncha mazmunining talqinida asosiy eʼtiborlarini korxona ishchan faolligi va ishonchliligi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxona hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati boʻlmish moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar.

Va nihoyat, uchinchi yondashuv vakillari korxona moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bogʻlaydilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega boʻlsada, bu jarayonda ular davlat koʻmagiga muhtojdir. Hozirgi sharoitda iqtisodiy fan oldidagi muhim vazifalardan biri – korxonalari taraqqiyotining moliyaviy muammolarini, jumladan korxonalar moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan yoʻriqlarni ishlab chiqish hamda nazariy asoslashdir.

Korxonalar nafaqat iqtisodiy tadbirlar tizimini, balki faoliyatning turli jabhalariga oid muammolar boʻyicha, jumladan, korxonalar tashkiliy shakllarini tanlash va ular koʻlamini aniqlash, alohida tarmoqlarda korxonalar taraqqiyoti xususiyatlarini belgilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish va moliyaviy nazorat oʻrnatish uslubi asosida korxonalar xoʻjalik moliyaviy faoliyatini boshqarish kabi masalalar boʻyicha takliflar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bu holat shu bilan belgilanadiki, korxonalar yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishning koʻlami, xoʻjalik mustaqilligidagi xususiyatlariga koʻra nisbatan yangicha uslubiy yondashuvni talab etadi.

Maʼlumki, moliyaviy barqarorlikning umumuslubiy tamoyillari barcha xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun yagonadir. Biroq, shu bilan birga mazkur tamoyillarning alohida tarmoqlar yoki xoʻjalik yuritish zvenolaridagi amal qilishi ularning oʻziga xos, aniq, shart-sharoitlarga moslashuvini talab etadi. Bu yerda shu narsa hisobga olinishi lozimki, moliyaviy barqarorlik korxonalarning nafaqat mulk shakli va tashkiliy-huquqiy asoslariga koʻra, balki xoʻjalik faoliyatining koʻlamiga qarab ham alohida xususiyatlarga ega boʻladi. Shunga muvofiq tarzda moliyaviy barqarorlik mazmuni, obyektining koʻlami, maqsadi va qoʻyilishi hamda moliyaviy holat, moliyaviy natijalarning baholanishi va talqin etilishi nisbatan farq qiladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirgan holda shuni taʼkidlash lozimki, korxona moliyaviy holatini tahlil qilish masalasi iqtisodiy holatning korxona holatiga bir muncha umumiyroq baho berish imkonini beruvchi korxona faoliyatining moliyaviy natijalari holatidan farqlanadi.

Moliyaviy barqarorlik tizimida korxona faoliyati moliyaviy natijalarining darajalari, dinamikasi va tarkibining holati alohida oʻrin egallaydi. Korxona faoliyatini xususiyatlovchi koʻrsatkichlarning koʻpligi ularni tizimli tarzda koʻrib chiqishning maʼlum uslubiy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Mazkur koʻrsatkichlarning turli isteʼmolchilar tomonidan turlicha maqsadlarda foydalanilishi ham tahlil chuqurligini qiyinlashtiradi. Masalan, korxona rahbarlarini olingan foydaning umumiy hajmi va tarkibi, uning miqdoriga taʼsir etuvchi omillar qiziqtiradi.

Moliyaviy holat tahlil qilinar ekan asosiy eʼtibor quyidagilarga qaratiladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama oʻrganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;
- mablagʻlar manbalari va joylanishini tekshirish, ularni toʻgʻri yoʻnalishda ishlatilganligini aniqlash;
- toʻlov majburiyatlarining oʻz muddatida bajarilganligi, debitor va kreditor qarzlar tarkibini oʻrganish;
- korxonaning oʻziga qarashli mablagʻlari bilan qarz mablagʻlari oʻrtasida nisbatni va aylanma mablagʻlarning manba bilan taʼminlanganligini tekshirish, moliyaviy intizomga qanchalik amal qilinishini aniqlash va toʻlov qobiliyatiga baho berish;
- korxona mulkining qadrliligi va tez pulga aylana olish darajasini oʻrganish;
- aylanma mablagʻlardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash boʻyicha takliflar berish va h. k.

Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablagʻlardan yanada toʻgʻri foydalangan holda toʻlovga layoqatlilikni mustahkamlashga qaratiladi.

Demak, bu jarayon mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bogʻliqligini koʻrsatadi. Moliyaviy barqarorlikni bajarishda zarur boʻladigan maʼlumot manbalariga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari maʼlumotlari va shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik hisoblari maʼlumotlari ham kiradi, chunki keyingi yillarda tuzilayotgan moliyaviy hisobotlar umumiy hajmining keskin qisqarishi tahlil imkoniyatlarini birmuncha cheklashga olib keldi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozir korxonalar moliyaviy faoliyati sohasida muhim vazifalar koʻndalang boʻlib turibdi. Bu vazifalarni ijobiy hal etmay turib, samarali bozor iqtisodiyoti mexanizmini vujudga keltirib boʻlmaydi. Hozir moliya-kredit resurslari, pul mablagʻlari aylanishining moddiy boyliklar harakatidan ajralib qolganligi, debitor-kreditor qarzlarining koʻpayib ketganligi – bu sohadagi eng katta kamchilikdir.

Korxonada noxush moliyaviy holatning dastlabki belgilariga quyidagilar kiradi: sotish hajmi oʻzgarmagan holda mehnatga haq toʻlash xarajatlarining oʻsishi; kreditor (hakdor)lar soniga nisbatan qarzdorlar sonining tezroq oʻsishi; sotish hajmi oʻzgarmagani holda moddiy zapaslar darajasining oʻsishi; korxona taraqqiyoti xarajatlari hajmining oʻsishi; sotish hajmining pasayishi; foiz stavkalari oʻrtacha bozor darajasining oʻsishi; maxsus qarzlarni qoplash uchun rezervlarning ortishi; oʻz faoliyati haqida noaniq tahminlar tuzish; qarzdorlar uchun toʻlov muddatining kechiktirilishi; ishlab chiqarish sikli muddatining ortishi; mahsulot sotish hajmi oʻzgarmagani holda sarmoyachilar uchuntoʻlovlarning oshirilishi va h. k.

Korxona faoliyatiga oid ayrim boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi moliyaviy holatni qisqa muddatga yaxshilash imkonini beradi. Bunday tadbirlar tizimida qator dolzarb choralarni ajratib koʻrsatish mumkin: korxona qarzlarining toʻlanishida toʻlov muddatlarining kechiktirilishiga erishish; ish haqi berilishida qatʼiy tartib saqlash; taʼsischilar uchun dividendlarni qayta investitsiya qilish; soliq imtiyozlaridan foydalanish; imtiyozli qarzlarni jalb etish; ishlab chiqarish zapaslaridan moddiy boyliklar sotilishini taʼminlash; ortiqcha asosiy vositalarni sotish; boshqaruv-maʼmuriy xodimlarini qisqartirish.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy koʻrsatkichning boshqa koʻrsatkichlar oʻzgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi korxona moliyaviy holatiga berilgan bahoni oʻzgartirishi mumkin.

Yuqorida taʼkidlangan fikrlar korxona moliyaviy holatini sifatli baholashning naqadar murakkabligini anglash imkoniyatini beradi, shuning uchun rivojlangan bozor tizimi sharoitida korxonalar alohida investorlar, maxsus tashkilotlar qarorlaridan koʻra koʻproq oʻzlarining xususiy kuzatishlari va tahlili natijalariga asoslanmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:**


1. Павлова И. А. Финансы и кредит. // 2017 г., 23 (июнь) с. 71–75. “Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя”.
2. Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск, 2007. – 04 с.
3. Омельченко И. И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационноэкономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. – С. 65.
4. Шеремет, А. Д. Теория экономического анализа: Учебный курс. - 2-е изд.,107 перераб. и доп. / А. Д. Шеремет. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 365 с.
5. Гиляровская Л. Т, Вехорева А. А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. – СПб., Дело и сервис, 2013. – С. 13.
6. Ивасенко, А. Г. Факторинг: учебное пособие / А. Г. Ивасенко, Я. И. Никонова. – М.: КноРус, 2011. – 224 с.
7. Akramov E. A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – 64–85-betlar.
8. Malikov T. S. Moliya: xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi. Oʻquv qoʻllanma / i. f. d., prof. A. V. Vahobovning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 254–257-betlar.
9. M. Q. Pardayev, I. T. Abdukarimov, A. A. Abdiyev, B. I. Isroilov Korxonalarda moliyaviy hisobotlar tazlili. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Soliq Akademiyasi, 2008. – 78 b.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.